


80. Katak qog'ozga shakl yasash


Yondosh mavzu:
haykaltaroshlik.

Katak, to'r,
to'g'ri to'rtburchak, kvadrat.




?	?	?
0	?	?
0	0	1

1. Rassom haykal yaratish uchun dastlab qog'ozda uning xomaki nusxasini chizadi. Bu xomaki nusxa qanday qismlardan tashkil topgan? Unda nechta to'rtburchak bor? Qaysi to'rtburchakning perimetri eng katta?



2. Haykaltarosh qiyshiq to'rga shakl chizdi. Uni daftaringizga ko'chirib chizing. Bu qanday shakl? Bu shaklning kichik tomonini 3 cm ga orttiring. Qanday shakl hosil bo'ldi?



3. Gipsli haykallar ko'pincha temir karkaslarga yopishtiriladi. Haykalning qo'llariga 3 m 2 dm 8 cm, tanasiga 2 m 3 dm, oyoqlariga 1 m 1 dm 6 cm sim ketdi. Haykal karkasiga hammasi bo'lib qancha sim ketgan?

4. Ixtiyoriy kvadrat yasang. Uning nechta simmetriya o'qi bor? Ularni chizing.

80. Katak qog'ozga shakl yasash



5. Jadval bo'yicha uchta tenglama tuzing va ulardan birini yeching.

	 Loydan yasalgan haykallar	 Gipsdan yasalgan haykallar	 Yog'ochdan yasalgan haykallar
Bor edi	$x + 245$	603	841
Sotildi	132	$y + 18$	$501 - z$
Qoldi	280	415	433



6. Suvenir do'konida 465 ta yog'och haykalcha sotilmoqda. 132 ta haykalcha yong'oqdan, 87 tasi qayrag'ochdan, qolganlari esa emandan yasalgan. Qaysi daraxtdan ko'p va qancha ko'p haykalcha yasalgan? Emandanmi yoki yong'oqdanmi?



7. $275 + 359 = 634$ ekanini bilgan holda quyidagilarni hisoblang:

$$275 + 358$$

$$634 - 359$$

$$634 - 275$$

$$276 + 359$$

$$634 - 358$$

$$634 - 265$$

$$276 + 358$$

$$634 - 357$$

$$624 - 275$$



8. Tenglamalarni yeching.

$$(254 - x) + 165 = 665$$

$$800 - (123 + y) = 209$$



9. Shaklni daftaringizga kataklar bo'yicha ko'chirib chizing. Qanday shakl hosil bo'ldi? Uning perimetrini millimetrlarda toping.

